



Atajanova Rabbina Raximovna,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

BOLALARDA ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA OILANING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada estetik tarbiya, kishilarda san'at asarlari, badiiy ijod namunalari nafaqat faol o'zlashtirish, balki ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish kabi tushunchalar yoritib beriladi. Bundan tashqari maqolada san'atga nisbatan mehr va muhabbat, qadrlash va e'zozlash, go'zallikni ko'ra olish va his qilishni o'rganish, avloddan avlodga yetkazish haqida so'z boradi. Estetik tarbiya ham tarbiyaning asosiy qismi bo'lib, o'quvchining axloqiga, xulq-atvoriga kuchli ta'sir qiladi va ota-onalarni ularni murg'aklikdan boshlab tarbiya qilishga chaqiradi.

Аннотация. В данной статье выделены такие понятия, как эстетическое воспитание, не только активное усвоение произведений искусства людьми, но и совершенствование способности понимать и оценивать их эстетическую сущность. Кроме того, в статье говорится о доброте и любви к искусству, признательности и уважении, умении видеть и чувствовать красоту, передаче ее из поколения в поколение. Эстетическое воспитание также является основной частью воспитания, оно оказывает сильное влияние на нравственность и поведение ученика и призывает родителей воспитывать его с детства.

Annotation. This article discusses the concepts of aesthetic education, not only as the active assimilation of works of art and examples of artistic creativity in people, but also the improvement of their ability to understand and evaluate their aesthetic essence. In addition, the article talks about kindness and love for art, appreciation and respect, learning to witness and feel beauty, passing it on from generation to generation. Aesthetic education is also the main part of education, it has a strong influence on the student's morals and behavior and calls on parents to educate them from childhood.

Tayanch so'zlar: estetika, estetik qobiliyat, oila, ota-ona, farzandlar, pedagogika, oila pedagogikasi, oila tarbiyasi, oila an'analari.

Ключевые слова: эстетика, эстетические способности, семья, родители, дети, педагогика, семейная педагогика, семейное воспитание, семейные традиции.

Keywords: aesthetics, aesthetic ability, family, parents, children, pedagogy, family pedagogy, family education, family traditions.

Kirish. Bolalarda haqiqiy go‘zallikni his etish tuyg‘usi tabiat bag‘rida, muzey, ko‘rgazma, kino va teatrlarga tashrif buyurganda shakllanadi. Tarbiya jarayoniga mas‘ul insonlar, ya‘ni farzandning ota-onasi uning qanday musiqa tinglashi, qanday film yoki multfilmlarni tomosha qilishi, qanday o‘yinchoq o‘ynashlarida befarq, loqayd bo‘lmasliklari lozim. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, estetik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Estetik duyongarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog‘liqdir. Agar bu masala oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa, uni maktab va udnan keyingi ta‘lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo‘ladi. Professor V. Karimova tarbiya jarayonining psixologik mohiyati to‘g‘risida shunday yozadi:

Tarbiya tushunchasining tub ma‘nosiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, bu – insonning o‘zi va o‘z xulqi haqidagi tasavvurining to‘g‘ri, xolis va obyektiv bo‘lishiga olib keluvchi murakkab jarayondir»¹. Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go‘zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go‘zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg‘u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishtirishga o‘rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi.

Maqsad va uni asoslash. Bolalarni har tamonlama yetuk qilib tarbiyalashning murakkab jarayonida estetika muhim rol o‘ynaydi. Estetik tarbiya odamlar ongida g‘oyalarni mustahkamlaydi va rivojlantiradi, atrofimizdagi hayotni chuqurroq anglash, go‘zallik olamiga nazar tashlash imkonini beradi. Binobarin, estetik tarbiya sohasidagi ishlar hozirda e‘tiborni tortmay qolmasligi aniq.

«Эстетическое воспитание учащихся» («O‘quvchilarning estetik tarbiyasi») nomli kitob pedagogik adabiyotlarda e‘tiborga molik hodisa bo‘lib, bugungi kunda estetik tarbiya masalalarini tizimlashtirilgan va umumlashtirilgan shaklda taqdim etishga qiziqarli urinishdir.

Kitob mualliflari mehnatga estetik munosabat bolalarda asta-sekin, mehnat jarayonida shakllanadi, deb bejiz ta‘kidlamaydilar. Qozon maktablari tajribasidan yorqin misollar keltirib, ular ish xonasining go‘zal muhiti, jihozlarning yaxshi holati, ish joyining tozaligi va tartiblilik bolani mehnatga undashini, unda ishni bajarishga intilishini ishonchli tarzda ko‘rsatib beradi.

Estetik xulq-atvor va kundalik hayot masalasida mualliflar A.S.Makarenkoning tajribalariga tayanadilar. Zero, xulq-atvor estetikasi ichki axloqiy poklikning tashqi ko‘rinishidir. O‘qituvchining vazifasi bolalarga odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning go‘zalligini ochib berish

Tarbiya tushunchasining tub ma‘nosiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, bu – insonning o‘zi va o‘z xulqi haqidagi tasavvurining to‘g‘ri, xolis va obyektiv bo‘lishiga olib keluvchi murakkab jarayondir».

¹ Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017.

Estetik tarbiya – jamiyatda ma’naviy muhitni paydo qilishga ko‘mak beruvchi muhim unsur bo‘lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir.

va ularni bu munosabatlarga ko‘niktirish, muayyan estetik ko‘nikma va odatlarni rivojlantirishdan iborat.

Ilmiy muammoning tavsifi va uning yechimi. Maktabda tabiat vositalari orqali estetik tarbiya masalalariga hali ham oz vaqt ajratilmoqda. Shuning uchun bu vazifa ko‘proq ota-onaning zimmasiga tushadi. Ular bolalarni ko‘proq ona tabiatga olib chiqishlari, ularga borliq go‘zalliklarini ko‘rsatishlari va qadrlashni o‘rgatishlari lozim. Shu bilan birga, turli muzeylarga, teatrlarga, konsertlarga olib borib madaniy hordiq chiqaribgina qolmay, estetik tarbiya berishlari kerak.

Estetik tarbiya – jamiyatda ma’naviy muhitni paydo qilishga ko‘mak beruvchi muhim unsur bo‘lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir. Hozirda estetik tarbiyaning ko‘lami tobora kengaymoqda. Shunga ko‘ra, u o‘z oldiga talaygina muhim vazifalarni qo‘ygan². Bular:

- kishilarda san’at asarlari, badiiy ijod namunalarini nafaqat faol o‘zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;
- jamiyat a’zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg‘usini uyg‘otish;
- tabiat va jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg‘u bilan munosabatda bo‘lishga va ularni ravnaq toptirish yo‘lida astoydil faoliyat olib borish ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘tmish ma’naviy merosimizga hurmat hissini uyg‘otish, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;
- ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlar uchun naf keltiradigan tomonlarini targ‘ib qilishga undash.

Tasviriy san’at, tabiat, teatr, adabiyot va musiqa bolani go‘zallik bilan tanishtirish vositasi, shaxsiy namuna, suhbatlar, bog‘larga, ko‘rgazmalar va muzeylarga sayohatlar; teatrlar bularning barchasi metodlarning bir ko‘rinishidir.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga – san’at, information texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport kabi sohalarni kiritish mumkin.³

Estetik tarbiya erta maktabgacha yoshdan boshlanishi kerak. Oila estetik tarbiyada katta rol o‘ynaydi. Oila tarbiyasi ko‘plab tarkibiy qismlardan iborat: oilada o‘zaro hurmat, samimiy his-tuyg‘ular, o‘z

² Rasulova M., Abdullayeva D., Oxunjonova S. Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. – Toshkent, 2003.

³ Xasanboyev I.J. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2021.

his-tuyg'ularini so'z bilan ifodalash qobiliyati va asosiy xatti-harakatlar normalariga rioya qilish. Ta'mni tarbiyalash kitoblardagi rasmlarni ko'rish, bola bilan alohida va birgalikda qo'shiqlar va bolalar qo'shiqlarini kuylashdan boshlanadi. San'at asarlarini qadrlash va ularga g'amxo'rlik qilish, ijodkorlik (chizish, modellashtirish, turli xil ilovalar yaratish) qobiliyatini rivojlantirish, o'z qo'llaringiz bilan biror narsa yaratish istagini uyg'otish muhimdir. Bolalarni mumtoz bolalar adabiyoti bilan muntazam tanishtirib borish, ular bilan suhbatlashish, qiziqishlarini qondirish zarur. Aylanishga chiqqanda, bolalar bog'chasi yoki maktabga ketayotganda ota-onalar shahardagi alohida binolarning go'zalligiga, ularning farqiga, bayram oldidan ko'chalarning nafis bezatilganligiga e'tibor berishingiz mumkin; bolaning kundalik hayotda foydalanadigan narsalarni did bilan tanlashga harakat qiling. U ishlatayotgan idishcha yoki stakan rang-barang va nafis ekanligini bilish bolani unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga undaydi. Siz unga bir nechta shunga o'xshash narsalarni tanlash imkoniyatini berishingiz mumkin.

Muvaffaqiyatli axloqiy va estetik tarbiya uchun erta yoshdan boshlab bolalarni bolaning tajribasiga yaqin bo'lgan klassik tasviriy san'at asarlari bilan tanishtirish kerak. Klassik asarlarda tabiat hodisalari, bolalar ongi tasvirlari aks ettirilgan. Estetik tarbiya aqliy, axloqiy va jismoniy bilan bevosita bog'liq holda amalga oshirilishi kerak. San'atning estetik tasavvurlarni shakllantirilishi to'g'risida gapirganimizda shuni aytish lozimki, u o'zida bir davrning o'zida mavjud va o'tmishdan qolgan an'analarni aks ettiruvchi va kelajak uchun yetkazuvchi vosita vazifasini o'taydi. San'atni idrok etish orqali shaxsning, jamiyatning estetik ongi tarkib topadi. U san'atni anglaydigan va undan estetik zavq oladigan bo'ladi, estetik ong shaxsda estetik qadriyatlarni yaratishga undaydi.

San'atning shaxs kamolida, ayniqsa maktabgacha yoshidagi bolalarda olam haqidagi real tasavvurlarni shakllantirishdagi o'rni beqiyos chunki san'at tabiatdagi hodisa va jarayonlarni, ular orqali olam tasvirini, insonlar faoliyatini bilish imkonini beradi. San'at ma'rifiy xarakter kasb etadi.

Estetik tasavvurlarning o'ziga xosligi shundaki, idrokning boshqa turlariga qaraganda narsalarni his qilish shakli –"ko'rinadigan" va "eshtiladigan" narsalar butunlay boshqa mazmun kasb etadi. Oddiy idrok qilishda narsalarning ko'rinishi, ohangdorligi unchalik muhim bo'lmaydi, balki uning ahamiyati muhimdir. Estetik idrok qilishda esa eng muhimi – idrok qilinayotgan narsaning obrazi, uning ifodali tomonlarini, nozik ranglarni ko'ra bilish talab qilinadi. Shuning uchun estetik tarbiya yuqori darajadagi sensor madaniyatni kuzatuvchanlikning rivojlangan bo'lishini talab etadi.

Muvaffaqiyatli axloqiy va estetik tarbiya uchun erta yoshdan boshlab bolalarni bolaning tajribasiga yaqin bo'lgan klassik tasviriy san'at asarlari bilan tanishtirish kerak. Klassik asarlarda tabiat hodisalari, bolalar ongi tasvirlari aks ettirilgan. Estetik tarbiya aqliy, axloqiy va jismoniy bilan bevosita bog'liq holda amalga oshirilishi kerak.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, estetik tarbiya har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishning muhim qismi ekanligini ko'ramiz. Shaxs jamiyatga tanishtiriladi, ya'ni bolaning jamiyatga keyingi moslashuvi muvaffaqiyati ta'minlanadi. Estetik tarbiya har bir shaxs uchun individual jarayondir, shuning uchun har bir bola uchun uni nazorat qilish imkonini beradigan usullardan foydalanish kerak. Bu biz tomosha qilgan film haqida suhbat, rasmning ma'nosini tushuntirish, klassik musiqa tinglash, bolalarni musiqa, xoreografiya, rassomlik va boshqa maktab va studiyalarda o'qitish bo'lishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bolalarni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda, bolalarni dunyoqarashini shakllantirishda va tasavvurlarini rivojlanirishda estetik tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Kelajakda farzandlarimiz bilimli, aqilli, yod g'oyalardan yiroqda shu bilan birga madaniyatli bo'lib rivojlanishida nafaqat ta'lim muasassalari balki oilaning ya'ni, ota-onaning bergan ta'lim tarbiyasiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017.*
2. *Xasanboyev I.J. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2021.*
3. *Rasulova M., Abdullayeva D., Oxunjonova S. Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. – Toshkent, 2003.*
4. *Tojiboyev J.U. "Oila – estetik tarbiyani amalga oshirishning asosiy bo'g'ini". O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023.*
5. *Аркин Е.А. Родителям о воспитании // Дошкольное воспитание. - 2008. - №3.*
6. *Ветлугина Н.А. Система эстетического воспитания в детском саду// Академия педагогических наук РСФСР. – Москва, 1962.*
7. *Горяева Н.А. Первые шаги в мире искусства. – Москва: «Просвещение», 1991. Эстетическое воспитание в семье. Сборник статей. // Искусство, – Москва, 1963.*